



## MINTAQAVIY INFRATUZILMANING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA YASHIL IQTISODIYOTNING SALOHİYATI

PhD, dots. **Sayfulina Alfira**  
Navoiy davlat universiteti  
ORCID: 0009-0002-9139-1037  
[alfirka892525@inbox.ru](mailto:alfirka892525@inbox.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning roli va salohiyati har tomonlama tahlil qilinadi. Global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklangani va atrof-muhit ifloslanishining kuchayishi yashil iqtisodiyotga asoslangan rivojlanish modelini joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy darajada infratuzilmani ekologik jihatdan barqaror va innovatsion yo'nalishda shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Maqolada yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, uning infratuzilmaviy rivojlanishga ta'siri, ekologik toza energiya manbalari, chiqindisiz texnologiyalar va barqaror transport tizimlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy loyihalarda yashil investitsiyalarni jalb qilish, ekologik samaradorlikni oshirish, raqamli texnologiyalar yordamida resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan. Ushbu maqola mintaqaviy infratuzilma sohasida ishlovchi mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda innovatsion va ekologik yondashuvlar bilan shug'ullanuvchi amaliyotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** mintaqaviy infratuzilma, innovatsion rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar, energiya tejamkorlik, atrof-muhit muhofazasi, mintaqaviy siyosat, yashil investitsiyalar, ekologik boshqaruv, innovatsion strategiya, infratuzilma loyihalari.

## ПОТЕНЦИАЛ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

к.э.н., доц. **Сайфулина Алфира**  
Навоийский государственный университет

**Аннотация.** В этой статье будет проведен всесторонний анализ роли и потенциала зеленой экономики в инновационном развитии региональной инфраструктуры. Глобальные изменения климата, ограниченность природных ресурсов и растущее загрязнение окружающей среды требуют внедрения модели развития, основанной на зеленой экономике. Особенно на региональном уровне одним из актуальных вопросов является формирование инфраструктуры в экологически устойчивом и инновационном направлении. В статье освещаются основные принципы зеленой экономики, ее влияние на развитие инфраструктуры, важность экологически чистых источников энергии, безотходных технологий и устойчивых транспортных систем. Также рассмотрены возможности привлечения зеленых инвестиций в региональные проекты, повышения экологической эффективности, рационального использования ресурсов с помощью цифровых технологий. Эта статья может быть полезна профессионалам, исследователям, работающим в области региональной инфраструктуры, а также практикам, использующим инновационные и экологические подходы.

**Ключевые слова:** региональная инфраструктура, инновационное развитие, зеленая экономика, экологическая инфраструктура, возобновляемые источники энергии, зеленые технологии, энергосбережение, защита окружающей среды, региональная политика, зеленые инвестиции, экологическое управление, инновационная стратегия, инфраструктурные проекты.

## THE POTENTIAL OF THE GREEN ECONOMY IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF REGIONAL INFRASTRUCTURE

PhD, assoc. prof. **Sayfulina Alfira**  
Navoi State University

**Abstract.** This article will comprehensively analyze the role and potential of the green economy in the innovative development of regional infrastructure. Global climate changes, restrictions on Natural Resources, and increased environmental pollution are calling for the introduction of a green economy-based development model. Especially at the regional level, the formation of infrastructure in an environmentally sustainable and innovative direction is one of the pressing issues. The article covers the basic principles of the green economy, its impact on infrastructure development, the importance of environmentally friendly energy sources, waste-free technologies and sustainable transport systems. Also considered in regional projects are the possibilities of attracting green investments, increasing environmental efficiency, rational use of resources using digital technologies. This article can be useful for professionals, researchers working in the area of regional infrastructure, as well as practitioners engaged in innovative and environmental approaches.

**Keywords:** regional infrastructure, innovation development, green economy, environmental infrastructure, renewable energy, green technologies, energy conservation, environmental protection, regional policy, green investment, environmental management, innovation strategy, infrastructure projects.

### Kirish.

So'nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ekologik muvozanatning buzilishi, global iqlim o'zgarishlari, tabiat resurslarining cheklangani va havoning ifloslanish darajasi ortib borayotgani insoniyatni yangi iqtisodiy yondashuvlar sari yo'naltirmoqda. Bu holat ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning mintaqalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy rivojlanish siyosatini shakllantirishda infratuzilmani innovatsion asosda qayta tashkil etish va shu jarayonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash dolzarb vazifaga aylandi. Yashil iqtisodiyot, ya'ni ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirgan holda rivojlanish, bugungi davrda nafaqat muqobil yondashuv, balki zaruratga aylangan konsepsiyadir. Ayniqsa, mintaqaviy infratuzilma – yo'llar, energetika tizimlari, transport, suv ta'minoti, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari kabi sohalarda yashil iqtisodiyotning imkoniyatlaridan foydalanish orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki atrof-muhitni asrashga ham erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, yashil iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosati va xalqaro majburiyatlar mintaqaviy infratuzilmani ekologik tamoyillar asosida shakllantirishni taqozo etmoqda. Aholining turmush darajasi, sog'lig'i va farovonligi bevosita mintaqadagi infratuzilma sifati bilan bog'liq bo'lgani bois, innovatsion va barqaror infratuzilmani rivojlantirish orqali uzoq muddatli natijalarga erishish mumkin. Shu ma'noda, yashil iqtisodiyotni amaliyotga joriy etish faqat ekologik masala emas, balki iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy tenglik va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash vositasi sifatida qaralmoqda. Bunda infratuzilmaviy loyihalarda energiya tejamkor texnologiyalar, qayta

tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari, “aqlli” boshqaruv tizimlari va raqamli yechimlar muhim rol oʻynaydi (Сайфулина, 2022).

Mintaqalarda mavjud infratuzilmaning aksariyati eskirgan, resurslarni ortiqcha sarflovchi va ekologik xavf tugʻdiruvchi boʻlib, ularni zamonaviy talablar asosida yangilash zarurati tugʻilmoqda. Yashil infratuzilma – bu nafaqat yangi texnik inshootlarni qurish, balki mavjud infratuzilmani ekologik mezonlarga moslashtirish, barqaror energiya manbalarini joriy qilish, suv va havo sifatini yaxshilash, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni qayta ishlash tizimlarini yoʻlga qoʻyishni ham oʻz ichiga oladi. Bunday yondashuv, oʻz navbatida, mintaqalarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi, mahalliy va xalqaro investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi, yangi ish oʻrinlari yaratadi va eng muhimi, aholi salomatligi va hayot sifatining yaxshilanishiga olib keladi (Сайфулина, 2022).

Yashil iqtisodiyot xalqaro miqyosda BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda boshqa koʻplab tashkilotlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanib, amaliy dasturlar orqali hayotga tatbiq etilmoqda. Ularning tahlillariga koʻra, yashil infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatda iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi, ishsizlik darajasini pasaytiradi va ekologik muammolarning oldini olishda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmasdan, yashil iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha milliy strategiyalarni ishlab chiqmoqda.

Aytish joizki, yashil iqtisodiyot va innovatsion infratuzilma oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni chuqur tahlil qilish, bu ikki soha integratsiyasi asosida mintaqaviy taraqqiyotga erishish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylangan. Bugungi kunda ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, raqamli nazorat tizimlari orqali infratuzilmani samarali boshqarish, hududiy energetik mustaqillikni taʼminlash, suv va chiqindi resurslarini integratsiyalashgan boshqaruv asosida yuritish kabi yoʻnalishlar orqali mintaqaviy infratuzilmaning sifat jihatidan yangi bosqichga chiqish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, Oʻzbekistonning iqlim sharoitlari, tabiiy resurslardan foydalanish holati va har bir mintaqaning oʻziga xos iqtisodiy-iqlimiy xususiyatlari yashil iqtisodiyot yondashuvlarini mintaqaviy darajada moslashtirishni talab etadi. Masalan, qurgʻochil hududlarda suv tejovchi texnologiyalar, quyosh energiyasi asosidagi infratuzilma muhim ahamiyatga ega boʻlsa, togʻli hududlarda ekologik xavfsizlik, chiqindilarni nazorat qilish va barqaror transport tizimlari ustuvor yoʻnalish boʻladi. Shunday sharoitda har bir mintaqada yashil iqtisodiyot elementlarini infratuzilma tizimiga integratsiyalash orqali innovatsion rivojlanishni taʼminlash mumkin.

### Adabiyotlar sharhi.

Soʻnggi yillarda mintaqaviy infratuzilmani innovatsion rivojlantirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiyalash boʻyicha ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi. Yashil iqtisodiyot global miqyosda ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan holda, iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv ayniqsa mintaqaviy infratuzilma tizimlarining zamonaviylashtirilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy manbalarda yashil infratuzilma elementlarini hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilishning turli usullari taklif etilmoqda. Avvalombor, bu borada xorijlik olimlarning ishlarini koʻrib chiqaylik. Rossiyalik olim Voroninaning (2016) fikriga koʻra, “Yashil iqtisodiyot”ga oʻtish konsepsiyasini amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari suv resurslaridan barqaror foydalanish, yuqori hosildorlikka asoslangan qishloq xoʻjaligini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish va energiya tejamkorlik tizimlarini rivojlantirish, havo ifloslanishini kamaytirish, ekotizimlarni boshqarishdan iborat.

Liskovskaya (2018) mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning oʻrni katta ekanligini va bunda innovatsion “yashil” texnologiyalardan foydalanish kerakligini aytib oʻtadi. Uning taʼkidlashicha, “Yashil iqtisodiyot – innovatsion “yashil” texnologiyalardan foydalanish orqali barqaror taraqqiyotga erishish vositasidir. Ushbu

turdagi texnologiyaga energiya va resurslarni tejash, uglerodli energiya manbalaridan foydalanishni qisqartirish hisoblanadi”.

Bulganov (2017) yashil iqtisodiyotning ijobiy tomonlarini keltirib o'tgan. Uning fikricha, “Yashil iqtisodiyot millatning farvonligini oshiradi, energiya resurslaridan muqobil foydalanish kerakligini ko'rsatadi va ekologiyaga zararli chiqindilarni chiqarib tashlashning oldi olinadi hamda ekologiyaga ketayotgan sarf xarajatlarni kamaytiradi”.

Shnayder (2023) yashil iqtisodiyotni ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan muqobil model sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, yashil iqtisodiyot mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida muhim o'rin tutadi, ayniqsa ekologik texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror taraqqiyotga zamin yaratadi.

Mahalliy tadqiqotchilarimizdan Siddikov (2025) yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanish doirasida ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashicha, “yashil iqtisodiyot” inson farovonligini oshiradigan va ekologik xavflarni kamaytiradigan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. U O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishda ekologik investitsiyalar, toza texnologiyalar va huquqiy asos muhimligini qayd etadi.

Yana bir tadqiqotchi Xashimova (2024) mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning salohiyatini yuqori baholaydi. Uning fikricha, “Yashil iqtisodiyot innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali hududiy infratuzilmaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi”. Muallifning fikriga ko'ra, yashil iqtisodiyot infratuzilmaviy loyihalarning ekologik xavfsizligini ta'minlab, barqaror iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasida muvozanatni yaratadi.

Asqarova, Jamolov, Xadjayev (2022) mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyot muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, “Yashil iqtisodiyot mintaqalarda ekologik muvozanatni saqlagan holda resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi va innovatsion infratuzilmaviy loyihalarning samaradorligini oshiradi”. Muallif ushbu iqtisodiy model mintaqalarda yashash sifati va iqtisodiy o'sishni bir vaqtda ta'minlashda muhim strategik vosita bo'lishi mumkinligini qayd etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning salohiyatini o'rganishda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va kompleks tahliliy uslublardan foydalanildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy manbalarni o'rganish asosida mavzuga oid asosiy ilmiy qarashlar, xalqaro tajriba va milliy amaliyotlar tahlil qilindi. Yondashuv sifatida tizimli, kompleks, muqobil tahlil asosida mintaqaviy infratuzilmaning hozirgi holati va yashil iqtisodiyotga integratsiya qilish imkoniyatlari o'rganildi. Mintaqalardagi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni qamrab olgan holat tahlili orqali mavjud muammolar, to'siqlar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlab chiqildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlardan foydalanish orqali O'zbekistonning ayrim viloyatlarida yashil infratuzilma bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar va ularning natijalari baholandi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv tahlil usullari birgalikda qo'llanilib, umumiy nazariy g'oyalardan aniq amaliy xulosalarga kelindi. Shuningdek, komparativ tahlil yondashuvi orqali xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan O'zbekiston amaliyoti qiyoslandi. Ushbu metodologik asoslar orqali maqolada mintaqaviy infratuzilmani ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan kompleks baholashga erishildi. Tadqiqot davomida sifatli tahlil usullari bilan birga, ayrim hollarda miqdoriy baholashlar ham keltirilib, muammoga ilmiy va amaliy yondashuv uyg'unligida yondashildi. Bu esa mavzuning chuqur o'rganilishi va aniq xulosalarning shakllanishiga zamin yaratdi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishi hozirgi kunda yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan samarali va tejamkor foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan yondashuvdir. Mintaqaviy infratuzilma esa iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning asosi hisoblanib, transport, energetika, suv ta'minoti, chiqindilarni boshqarish kabi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion rivojlanish bu sohalarida raqamli texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni nazarda tutadi (Сайфулина, 2025). Ayniqsa, mintaqalarda yashil iqtisodiyotning salohiyatini ishga solish orqali infratuzilma nafaqat ekologik xavfsiz, balki iqtisodiy samarali bo'lishi mumkin. Quyidagi jadvalda O'zbekistonda mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning salohiyati ko'rsatkichlar, yo'nalishlar va natijalari tahlili keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

#### O'zbekistonda mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning salohiyati

| Yo'nalishlar                       | Amaldagi tashabbuslar                                                      | Innovatsion imkoniyatlar                                                 | Kutilayotgan natijalar                                                      |
|------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
| <b>Qayta tiklanuvchi energiya</b>  | Quyosh va shamol elektr stansiyalarining barpo etilishi                    | Mintaqalarda kichik GES va BPS tizimlarini joriy etish                   | Elektr energiyasi ishlab chiqarishda ekologik tozalik va barqarorlik        |
| <b>Transport infratuzilmasi</b>    | Elektr avtobuslar va elektrobos parklarini kengaytirish                    | Raqamli boshqaruv tizimlari va EV zaryad stansiyalari                    | Yoqilg'i sarfini kamaytirish va CO <sub>2</sub> chiqindilarini qisqartirish |
| <b>Suv resurslarini boshqarish</b> | Tomchilab sug'orish texnologiyalarini qo'llash                             | Aqlli suv taqsimoti tizimlari, suvni qayta ishlash texnologiyalari       | Suv tanqisligini kamaytirish va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish  |
| <b>Chiqindilarni boshqarish</b>    | Qattiq maishiy chiqindilarni saralash va utilitatsiya qilish               | Bioenergiya olish va qayta ishlash texnologiyalarini kengaytirish        | Aholining sanitariya holatini yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratish    |
| <b>Qurilish infratuzilmasi</b>     | "Yashil qurilish" tamoyillariga rioya qilinayotgan yangi binolar           | Energiya tejamkor qurilish materiallari va "aqlli uy" texnologiyalari    | Iссиqlik va elektr energiyasi tejamkorligi, ekologik xavfsizlik             |
| <b>Raqamli infratuzilma</b>        | Hududlarda internet infratuzilmasining kengaytirilishi                     | "Aqlli shahar" konsepsiyalari, IoT qurilmalarini joriy etish             | Ijtimoiy xizmatlar sifati oshishi va resurslardan samarali foydalanish      |
| <b>Ekoturizm infratuzilmasi</b>    | Ekoturizm zonalarini rivojlantirish (Zomin, Zaamin, Qorako'l va boshqalar) | Barqaror turizm infratuzilmasini yaratish, ekologik transport vositalari | Mahalliy iqtisodiy faollik va atrof-muhit muhofazasining uyg'unligi         |

**Manba:** muallif tomonidan tayyorlangan

Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlardan bizga ma'lumki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot mintaqaviy infratuzilmani innovatsion rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ayniqsa quyosh va shamol elektr stansiyalari, hududlarda elektr ta'minotini barqarorlashtirish bilan birga ekologik tozalikka ham xizmat qilmoqda. Transport sohasida esa elektrobuslar va zaryad stansiyalarining ko'payishi, avtomobil chiqindilarining kamayishiga olib kelmoqda. Suv resurslarini tejash uchun joriy etilgan texnologiyalar ayniqsa qishloq xo'jaligida katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash esa bioenergiya ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Qurilishda energiya tejankor texnologiyalar bilan bir qatorda raqamli infratuzilma, ayniqsa "aqlli shahar" loyihalari mintaqalarning rivojlanish darajasini oshirmoqda. Ekoturizm esa ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishida yashil iqtisodiyotning salohiyati oshirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar sifatida quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni aytishimiz mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-561-sonli Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-213-sonli Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi №PQ-4477-sonli Qarori.

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarning ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori muhim ahamiyatga egadir. Mazkur qarorning mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishiga ta'siri beqiyos. Chunki qarorda mintaqalarning tabiiy, iqtisodiy va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hududiy rivojlanish dasturlariga yashil texnologiyalarni integratsiyalash belgilangan. Bu esa har bir mintaqada quyosh, shamol, biomassa va geotermal energetikasi asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga keng yo'l ochadi. Ayniqsa, suv ta'minoti, chiqindilarni boshqarish, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida ekologik standartlarga javob beradigan texnologiyalarni tatbiq etish orqali innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Ushbu qarorda 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar aniq belgilab olingan (2-jadval):

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan bizga ma'lumki, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini 2022-yildagi 5 foizdan 2030-yilgacha 30 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan, bu esa energiya samaradorligini sezilarli oshirishni ko'rsatadi. Sanoatda elektr energiyasi iste'molining umumiy ulushi 26 foizdan 35 foizgacha oshiriladi, bu sanoatda toza energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadini bildiradi. Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish hajmi 6,5 kVt/s dan 40 kVt/s gacha yetkazilishi ko'zda tutilgan. Quyosh fotoelektr stansiyalari quvvatini esa 10 MVtdan 1500 MVtgacha oshirish rejalashtirilgan. Ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyati 69,7 foizdan 90 foizgacha yetkazilib, aholining toza suvga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi ko'zlangan.

2-jadval

**2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar (Qaror, 2022)**

| T/r | Ko'rsatkichlar                                                                                                                                     | O'lchov birligi    | 2022-yil | 2024-yil | 2026-yil | 2028-yil | 2030-yil |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1.  | Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini kamaytirish (2021-yilga nisbatan)                                                | %                  | 5,0      | 14,0     | 22,0     | 27,0     | 30,0     |
| 2.  | Sanoatda elektr energiyasi iste'moli, umumiy iste'moldagi ulushi                                                                                   | %                  | 26,0     | 25,0     | 23,0     | 21,0     | 20,0     |
| 3.  | Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish (gidroenergetika bilan birga) | %                  | 8,0      | 9,0      | 24,3     | 29,0     | 30,5     |
|     |                                                                                                                                                    | kVt/s              | 6,5      | 8,6      | 25,0     | 34,0     | 40,7     |
| 4.  | Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish                                                                                            | MVt                | 10,0     | 150,0    | 400,0    | 800,0    | 1500,0   |
| 5.  | Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan                                              | %                  | 69,7     | 80,93    | 87,12    | 88,5     | 90,0     |
| 6.  | O'rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko'paytirish                                                                               | mln.m <sup>3</sup> | 64,2     | 68,1     | 77,0     | 85,5     | 92,3     |
| 7.  | "Yashil makon" loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish (aholi punktining umumiy maydoniga nisbatan)                       | %                  | 8,3      | 12,4     | 15,8     | 23,8     | 30,0     |
| 8.  | Hududlarda yangi 600 ta chiqindi to'plash shaxobchalarini tashkil etish                                                                            | dona               | -        | 50       | 200      | 400      | 600      |

O'rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko'paytirish 64,2 mln.m<sup>3</sup>dan 92,3 mln.m<sup>3</sup>gacha oshiriladi. Shahar yashil maydonlarini kengaytirish va chiqindi to'plash shaxobchalarini ko'paytirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda oxirgi ikki yilda, ya'ni 2023-2024-yillarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lam ishlar amalga oshirildi. Ushbu ikki yilda amalga oshirilgan faoliyatlar nafaqat energetika, balki iqlim o'zgarishi, uglerod emissiyasi, uglerod savdosi, yashil moliyalashtirish kabi ko'plab yo'nalishlarni ham qamrab oldi. 2023-yilda asosan huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu tashabbuslar amaliy bosqichga o'tdi. Jumladan, yashil energiya sertifikatlar tizimi joriy etildi va faol ishga tushdi, uglerod savdosi bo'yicha dastlabki transhlar ajratildi. Jahon banki, YeTTB, AFD va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda katta hajmdagi moliyalashtirish ishlari olib borildi. Issiqxona gazlarini monitoring qilish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, MRV tizimini yaratish, hamda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Quydagi jadvalda 2023-2024-yillarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bajarilgan asosiy ishlar yillarga qarab taqqolab keltirilgan (3-jadval):

**Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan ishlar, 2023-2024-yillar<sup>1</sup>**

| 2023-yil                                                                                                         | 2024-yil                                                                                                                   |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Yashil energiya sertifikatlari” tizimi ishlab chiqildi.                                                         | 48 mingdan ortiq “yashil energiya” sertifikati sotildi, birja savdolari yo'lga qo'yildi.                                   |
| Uglerod savdosi bo'yicha TCAF loyihasi asosida pilot dasturlar belgilandi.                                       | Jahon banki orqali ERPA komponenti doirasida 7,5 mln \$ mablag' ajratildi.                                                 |
| MRV (monitoring, reporting, verification) tizimini joriy qilish bo'yicha dastlabki ishlar boshlandi.             | MRV tizimining milliy metodologiyasi ishlab chiqildi, onlayn treninglar o'tkazildi.                                        |
| “Issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash to'g'risida”gi qonun loyihasi tayyorlandi.                            | Shu qonun loyihasi tasdiqlandi, tartibga solish infratuzilmasi yaratildi.                                                  |
| “Yashil kafolat” dasturi konsepsiyasi ishlab chiqildi.                                                           | Xususiy sektor bilan hamkorlik kengaytirildi, tadbirkorlikni “yashillashtirish” bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. |
| Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo'yicha strategik hujjatlar ishlab chiqish boshlandi.                        | Jahon banki va YETTB bilan LTS (uzoq muddatli strategiya) ishlab chiqilmoqda.                                              |
| CCDR (iqlim o'zgarishi va rivojlanish hisobotlari) loyihasi yo'lga qo'yildi.                                     | CCDR hisobotlari yakunlandi va e'lon qilindi.                                                                              |
| “Yashil” sanoat siyosati bo'yicha xususiy sektorga tavsiyalar ishlab chiqildi.                                   | 80 nafar xodim, shu jumladan 30 nafar ayol malakasi oshirildi, 25 ta KOB emissiyani 10%ga kamaytirdi.                      |
| “Yashil iqtisodiyot” bo'yicha xalqaro donorlar koordinatsiyasi kuchaytirildi.                                    | Xalqaro konferensiyalar va uchrashuvlar orqali kooperatsiya kuchaytirildi.                                                 |
| Uglerod birliklari reyestri, emissiyalar kadastri yaratish bo'yicha dastlabki tayyorgarlik ishlari olib borildi. | “Milliy shaffoflik tizimi” qarori tasdiqlandi, xalqaro hisobotlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.                              |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023-yil yashil iqtisodiyot uchun normativ-huquqiy, tashkiliy va metodik asoslarni yaratishga qaratilgan bo'lsa, 2024-yilda esa bu tashabbuslarning amaliyotga tatbiq etilishi va monitoringi amalga oshirilgan. Jumladan, 2023-yilda joriy etilgan “yashil energiya sertifikatlari” 2024-yilda sotuvga chiqarilib, minglab sertifikatlar birjada muomalaga kiritildi. MRV tizimining asoslari yaratilgan bo'lsa, keyingi yilda bu tizim metodologik jihatdan mustahkamlandi va treninglar orqali amaliyotga tatbiq qilindi. Issiqxona gazlari savdosiga oid qonuniy asos 2023-yilda ishlab chiqilgan va 2024-yilda rasmiylashtirildi. Jahon banki va boshqa donorlar bilan hamkorlikda boshlang'ich bosqichdagi loyihalar 2024-yilda moliyaviy ko'makka ega bo'lib, issiqxona gazlarini qisqartirishga yo'naltirildi. Xususiy sektor ishtiroki kuchayib, malaka oshirish dasturlari orqali inson resurslari salohiyati oshirildi. Bu ikki yillik faoliyatlar O'zbekistonni yashil iqtisodiyot sari olib boruvchi muhim pog'onalar bo'lib, ekologik barqarorlik va xalqaro bozorga integratsiyalashuv uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Umumiy qilib aytganda, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida mintaqaviy infratuzilmani innovatsion rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayon nafaqat texnik infratuzilma sifatini oshirishni, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham ta'minlash imkonini bermoqda. Shuningdek, yashil infratuzilma loyihalari orqali mintaqalarda yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, investitsion muhit yaxshilanmoqda, aholining farovonligi oshmoqda. Mintaqaviy darajada ushbu yondashuvlarning izchil qo'llanilishi O'zbekistonning umumiy barqaror rivojlanish strategiyasiga muvofiq tarzda

<sup>1</sup> <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

amalga oshmoqda va bu o'z navbatida, kelgusida mamlakatni global ekologik va iqtisodiy jarayonlarga yanada samarali integratsiyalashishiga zamin yaratmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy infratuzilmaning innovatsion rivojlanishi va yashil iqtisodiyotning uyg'unlashuvi zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishga erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya va suv tejamliligini oshirish kabi tamoyillarni o'z ichiga olgan ilg'or konsepsiya bo'lib, u mintaqaviy rivojlanishda barqarorlik va innovatsiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda infratuzilmaning yangilanishi va modernizatsiya qilinishi faqat texnik jihatlarni emas, balki ekologik va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab olishi zarur. Bu esa yashil iqtisodiyot yondashuvini infratuzilmaviy siyosatga integratsiyalashni taqozo etadi.

Mintaqalarda yashil iqtisodiyot elementlarini infratuzilma sohalariga tatbiq etish orqali nafaqat atrof-muhit muhofazasi ta'minlanadi, balki iqtisodiy samaradorlik, energiya mustaqilligi, resurslardan tejab-tergab foydalanish va yangi ish o'rinlarining yaratilishi kabi ijobiy natijalarga ham erishiladi. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirishda quyidagi takliflar muhim hisoblanadi:

Avvalo, infratuzilmaviy loyihalar ishlab chiqilishida ekologik baholash mezonlari qat'iy qo'llanilishi lozim. Har qanday yangi qurilish, rekonstruksiya yoki modernizatsiya jarayonlari ekologik ta'sir ko'rsatkichlari asosida baholanishi va yashil texnologiyalarni joriy etish imkoniyati mavjudligi inobatga olinishi kerak.

Shuningdek, mintaqaviy infratuzilmani moliyalashtirishda yashil investitsiyalarni keng jalb etish zarur. Buning uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida sheriklik munosabatlarini kuchaytirish, soliq imtiyozlari va kredit preferensiyalarini kengaytirish orqali yashil texnologiyalarga sarmoya kiritishga rag'batlantiruvchi mexanizmlar yaratilishi lozim.

Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini infratuzilma tizimlariga integratsiyalash mintaqalar barqarorligi uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Quyosh, shamol, biogaz kabi manbalardan foydalanish orqali nafaqat energiyaga bo'lgan ehtiyoj qoplanadi, balki atrof-muhitga bo'lgan bosim ham kamayadi.

Yashil infratuzilmani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va aqlli infratuzilmaviy yechimlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bu orqali resurslarni real vaqt rejimida boshqarish, nosozliklarni aniqlash va samaradorlikni oshirish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, aholi o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish, yashil infratuzilmaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish orqali barqaror rivojlanish g'oyalarini jamiyatga singdirish zarur. Fuqarolarning faol ishtiroki va jamoatchilik nazorati infratuzilma loyihalarining sifatli va maqsadga muvofiq amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida har bir mintaqaning iqlimiy, iqtisodiy va demografik xususiyatlarini inobatga olgan holda hududiy infratuzilma strategiyalarini ishlab chiqish muhim. Masalan, suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda suv tejovchi texnologiyalar, quyosh energiyasi salohiyati yuqori bo'lgan joylarda fotoelektr stansiyalar, sanoat salohiyati yuqori bo'lgan mintaqalarda chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish ustuvor bo'lishi kerak.

Umumiy qilib aytganda, yashil iqtisodiyot asosida mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish – bu faqat ekologik ehtiyoj emas, balki iqtisodiy zarurat, ijtimoiy barqarorlik va milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim yo'lidir. Bu jarayonda ilmiy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki uyg'unlashgan holda harakat qilishi zarur.

**Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:**

Asqarova M.T., Jamolov J.J., Xadjayev X.S. (2022) *Yashil iqtisodiyot. (Darslik)*. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", -312 b.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori

Xashimova S.N. (2024) *Yashil iqtisodiyot. Darslik*. –T.: "Ma'rifat", -224 bet.

Булганов Ю.В., Набок С.Д. (2017) Взаимообусловленность понятий «зеленая» экономика, «зеленый» рост и устойчивое развитие // Политические науки, № 5. С. 89 – 91.

Воронина А.А. (2016) Социальное предпринимательство в сфере «зеленой» экономики: Основные тенденции развития // Концепт. Т.41, с. 60 – 64.

Лисковская Е.А., Григорьева К.М. (2018) Формирование «зеленой» экономики и устойчивого развития стран и регионов // Вестник Южно – Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент, С.15 – 22.

Сайфулина А. (2025). Современное состояние и основные проблемы инновационного развития региональной инфраструктуры. *Экономическое развитие и анализ*, 3(3), 193–201. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/80150>

Сайфулина А.Ф. (2022) Особенности создания и развития производственной инфраструктуры регионального промышленного комплекса // *Ta'lim fidoyilari*. – №. Special issue. – С. 238-241.

Сайфулина А.Ф. (2022) Роль энергоресурсов в производственной инфраструктуре Республики Узбекистан.

Сиддиов З.Т. (2025) "Развития зеленой экономики в Республике Узбекистан" // *International Scientific and Practical Conference "Environmental Protection and Scientific Foundations of the 'Green' Economy"*, Апрель 4–5.

Шнайдер В.В. (2023) Роль зеленой экономики в достижении устойчивого развития // *Азимут научных исследований: экономика и управление*. Т. 12. № 2(43). С. 1-10.